

ЁШ ТАТҚИҚОТЧИЛАР МИНБАРИ

ТРИБУНА МОЛОДЫХ
ИССЛЕДОВАТЕЛЕЙ

YOUNG RESEARCHERS
ROSTRUM

KALTAMINOR JAMOALARI IJTIMOYIY-IQTISODIY VA MA'NAVIY HAYOTINING TARIXIY REKONSTRUKSIYASI XUSUSIDA

© 2024. Haytboy Egamberganov

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti

Kalit so'zlar: Tosh asri, neolit, Kaltaminor madaniyati, tarixiy rekonstruksiya, uy-joylar, qabr materiallari, Jonbos 4, Tolstov makoni, moddiy va ma'naviy madaniyat, dunyoqarash, ijtimoiy tengsizlik, an'ana, antropologik tip, madaniy aloqalar

Mazkur maqola turar-joylar va qabr materiallari asosida Kaltaminor jamoalari ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy hayotining tarixiy rekonstruksiya masalasini yoritishga bag'ishlangan. Bunda S.P. Tolstov, A.V. Vinogradovlar tomonidan tadqiq etilgan Jonbos 4, Qavat 7, Tolstov makoni, Uchashi 131, Lavlakan 26, Darbozaqir 1,2 yodgorliklarida o'rganilgan turar-joylarning shuningdek, Xorazm arxeologiya ekspeditsiyasi xodimlari hamda Y. Bijanov tomonidan o'rganilgan Tumek-Kichikjik, Tolstov makoni qabrlari va Janubi-Sharqiy Ustyurtda Kaskajol neolit davri qabr materiallari tahlil etilgan. Xususan, turar-joylar odamlar turmush tarzini ifodalovchi tarkibiy element hisoblanib, bu haqdagi ma'lumotlar tarixiy davr jamiyati, urug'chilik tamoyillari, uy-joylar qurilishi uslublari, materiallari, uylarning ichki tarkibiy tuzilmalari, oila-nikoh munosabatlari, diniy e'tiqodlarini tiklashga xizmat qiluvchi birlamchi manba hisoblanadi. Shuningdek, qabr materiallari ham neolit davri ijtimoiy munosabatlarni, jamoalarining moddiy, ma'naviy madaniyati, dunyoqarashini rekonstruksiya qilishga asos beruvchi birlamchi manba hisoblanib, o'z navbatida jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlik, ma'naviy hayotni, aholi e'tiqodi va dafn bilan bog'liq rasm-rusumlari, urf-odatni, antropologik tiplarni, madaniy aloqalarni tiklash imkonini beradi. Maqolada Tolstov makonining 2–3-uylariga oid materiallar ilk bor ilmiy muomalaga kiritilmoqda.

ОБ ИСТОРИЧЕСКОЙ РЕКОНСТРУКЦИИ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОЙ И ДУХОВНОЙ ЖИЗНИ КЕЛЬТАМИНАРСКИХ ОБЩИН

© 2024. Хайтбой Эгамберганов

Каракалпакский государственный университет им. Бердаха

Ключевые слова: Каменный век, неолит, кельтаминарская культура, историческая реконструкция, жилища, погребальный материал, Жанбас 4, стоянка Толстова, материальная и духовная культура, мировоззрение, социальное неравенство, традиции, антропологический тип, культурные связи.

Данная статья посвящена вопросу исторической реконструкции социально-экономической и духовной жизни кельтаминарских общин на основе поселений и погребальных материалов. Рассматриваются изученные С. П. Толстовым, А. В. Виноградовым памятники Джанбас 4, Кават 7, стоянка Толстова, Учашчи 131, Лавлякан 26, Дарбозакир 1,2, а также неолитический погребальный материал могил Тумек-Кичикжика, погребение стоянки Толстова и Коскажольского неолитического погребения Юго-Восточного Устыурта изученные Е. Бижановым и сотрудниками Хорезмской археологической экспедиции. Жилища считаются структурным элементом, отражающим образ жизни людей, а получаемая информация – первоисточником, служащим реконструкции обществ исторического периода, принципов родового общества, способов домостроения, строительных материалов, конструктивных особенностей домов, семейно-брачных отношений и религиозных убеждений. Погребальный материал рассматривается как первоисточник для реконструкции общественных отношений, материальной и духовной культуры, мировоззрения эпохи неолита, социального неравенства общества, духовной жизни, верований связанных с погребальной обрядностью, изобразительного искусства, традиций, а также антропологических типов, позволяющие восстановить культурные связи. В статье вводятся в научный оборот материалы, относящиеся о второму и третьему домам стоянки Толстова.

Kirish


Hozirgi xalqaro aloqalar kengayib borayotgan zamonaviy globallashuv jarayonlari sharoitida Vatanimiz tarixi, xalqimizning boy madaniy merosi, madaniyat tarixini keng ko'lamli o'rganish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu jahon hamjamiyatini xalqimiz tarixi, madaniy merosi bilan tanishtirishda mustahkam asoslar yaratadi. Shu bois, mazkur yo'nalishda fanlararo (tarix, arxeologiya, bioarxeologiya, geologiya, etnologiya, tarixiy geografiya va kartografiya) usullariga tayangan holda, paleoekologiya va inson faoliyati ta'sirida antropogen (madaniy) landshaftning rivojlanishi, ijtimoiy – iqtisodiy jarayonlarni qayta tiklash, moddiy va ma'naviy madaniyat tarixini tadqiq etishga qaratilgan ilmiy ishlar olib borish davr talabi hisoblanadi. Aniqrog'i, ibtidoiy davr madaniyat tarixiga doir tosh, suyak qurollari, sopol idishlar, turar-joylar, qabrlar, qoyatosh rasmlari, taqinchoqlardan tarixiy rekonstruksiya jarayonida unumli foydalanish, ularni yangicha ilmiy qarashlar asosida tarixiy nuqtai nazardan talqin qilish o'ta muhimdir. Bunday ilmiy qarash kishilik tarixi tosh asri, uning tarixiy taraqqiyoti bosqichlari ijtimoiy tuzumini, odamlar kunlik turmush tarzini, xo'jalik mashg'ulotlari, ma'naviy kechinmalari, dunyoqarashlarini, madaniy aloqalar, madaniyatlar genezisini tadqiq etish borasidagi bilimlar doirasini yanada kengaytirish umumlashtirilgan xulosalar chiqarish bilan bevosita bog'liqdir.

Yuqorida keltirilganidek, kishilik tarixi qadimgi tarixiy davrlar (tosh asri) jamiyati, ijtimoiy munosabatlar, iqtisodiy, madaniy taraqqiyot jarayonlari birlamchi manbalar asosida tarixiy rekonstruksiya qilinadi. Bu manbalar jumlasiga qazishmalarda qo'lga kiritilgan arxeologik ashyolar (tosh, suyak qurollari, sopol idishlar, taqinchoqlar, qabr manbalari, qoyatosh rasmlari) kiradi. Shu asnoda, qadimgi odamlar jamiyati, odamlar turmushi bilan bog'liq jarayonlari, ularning ma'naviy madaniyati, kechinmalari tiklanadi. Etnografik tadqiqotlarda faktik materiallarning qiyosiy tahlil natijalari ma'lumotlari ham bu sohaga xizmat qiladi.

Neolit davri jamoalari ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy, ma'naviy hayotini rekonstruksiya jarayoniga ham o'zlarida turli axborotni aks ettiradigan ushbu manbalar asqotadi. Bu haqda ilmiy adabiyotlarda ma'lumotlar mavjud. Masalan, V. M. Masson o'z tadqiqotlarida arxeologik ashyolar moddiy dalil sifatida, etnografik tadqiqotlar, so'rovlar etnik ma'lumot sifatida qadimgi jamiyatlar mazmunini tiklashdagi o'rni masalasiga alohida e'tibor qaratgan. Tadqiqotchi manbalarni tahlil qilar ekan, ular mazmunida bir tomondan jamiyat ijtimoiy munosabatlari, iqtisodiy rekonstruksiya, ijtimoiy tuzilish, ma'naviy hayoti tarixiy rekonstruksiya, ikkinchi tomondan tarixiy davr etnomadaniy masalalari, etnik aloqalarning, jamoalar turmush tarzining rekonstruksiya jarayoni yaqqol namoyon bo'lishini qayd etgan (Массон 1976: 12–13).

Materiallar

O'rta Osiyo miqyosida tosh asri, xususan neolit davri jamoalari moddiy-ma'naviy madaniyatini arxeologik materiallarni o'rganish asosida tarixiy rekonstruksiya masalalari tadqiqoti amalga oshirilgan va ularning natijasi ilmiy adabiyotlarda o'z aksini topgan. Masalan, bu masala o'tgan asr 40 – yillarining oxirlarida ilk bor S. P. Tolstovning ilmiy ishlarida yoritilgan. Xususan, Kaltaminor madaniyati sohiblarining turmush – tarzi, ijtimoiy tizimi va ibtidoiy e'tiqodlarini qayta tiklash jaraenining muhim jihatlari ochib berilgan (Толстов 1948: 59–66). Shuningdek, Xorazm arxeologik ekspeditsiyasi Janubiy Orolbo'yi hududlarini inson tomonidan o'zlashtirilishi, Amudaryoning qadimgi o'zanlari tarixi bo'yicha keng dala tadqiqotlar olib borilib, to'plangan materiallar asosida paleogidrografiya va paleoekologiya rekonstruksiya ishlarini yorituvchi tadqiqotlar yuzaga keldi (Низовья Амударьи, Сарыкамыш, Узбой.... 1960). Janubiy Orolbo'yi hududida qadimiy sug'orish tizimining shakllanishi va rivojlanishi borasidagi tadqiqotlarda qo'lga kiritilgan materiallar asosida qadimgi davr daryo o'zanlari, sug'orish shoxobchalari, inshootlari tarixiy rekonstruksiya ishlari amalga oshirildi (Фуломов 1959; Андрианов 1969). O'tgan asr



1-rasm. S. P. Tolstov makoni xaritasi


Рис. 1. Стоянка С. П. Толстова на карте

Fig. 1. Map of Tolstov campsite

60–80 yillarida XAE xodimlari tomonidan Amudaryo etagi Oqchadaryo vohasi, Qizilqum ichki hududlari, Quyi Zarafshonning qadimgi o'zanlari (Echkiliksoy, Oyoqog'itma, Daryosoy va Chorbaqti vohalarida) bo'ylab kompleks xarakterdagi amalga oshirilgan arxeologik tadqiqotlarda qo'lga kiritilgan katta hajmdagi materiallar asosida neolit davri paleogeografiyasi, iqlimiy sharoiti, Kaltaminor urug' jamoalarining ijtimoiy tuzumi, xo'jalik hayoti, turar-joylari, qabr materiallari, taqinchoqlari asosida ma'naviy dunyoqarashlari, e'tiqodlari, antropologik tipi, qo'shni neolit jamoalari bilan o'zaro madaniy aloqalari, migratsiyasi haqida tarixiy rekonstruksiya-qayta tiklash ishlari amalga oshirildi va ular qator ilmiy adabiyotlarda o'z ifodasini topdi (Гулямов, Исламов Аскарлов 1966: 21–94; Виноградов 1968; Виноградов 1981; Виноградов, Итина, Яблонский 1986; Холматов 2007; Холматов 2008.).

Shuningdek, O'rta Osiyo hududi boshqa hududlari miqyosida tadqiq etilgan neolit madaniyatlari materiallari ham mazkur tarixiy davrni rekonstruksiya ham manbaviy asos bo'lib xizmat qilgan. Jumladan, tarixiy davr ijtimoiy tuzumi, aholi moddiy, ma'naviy hayoti, iqtisodiy xo'jalik taraqqiyoti haqida Farg'ona vohasida Markaziy Farg'ona, O'rta Zarafshon vohasida Sazog'on, Markaziy va Janubiy Tojikistonda Hisor, Janubiy Turkmanistonda Joytun madaniyati yodgorliklari qazilmalarida qo'lga kiritilgan materiallar muhim hisoblanadi. Xususan, turar-joylar, qabr ma'lumotlari bu borada ahamiyat kasb etadi.

Shu bois, biz quyida Xorazm arxeologiya ekspeditsiyasi tomonidan tadqiq etilgan turar-joylar va qabrlar materiallari asosida neolit davri ijtimoiy munosabatlar, urug'doshlik tamoyillari, aholi moddiy madaniyati, ma'naviy hayoti, dunyoqarashi, madaniy aloqalari, antropologik tipi, etnik birikmalarini tarixiy rekonstruksiya masalalariga to'xtalamiz.



2-rasm. Jonbos 4 makoni, S. P. Tolstov tomonidan taklif qilingan uyning rejasi va rekonstruksiyasi (chapda).

Jonbos 4 uyining yangi rekonstruksiya varianti (o'ngda). (A. V. Vinogradov)

Рис. 2. Стоянка Джанбас 4, план и реконструкция дома по предложению С. П. Толстова (слева).

Новый вариант реконструкции дома Джанбас 4 (справа), (А. В. Виноградова)


Fig. 2. Campsite of Jonbos 4, plan and reconstruction of the house proposed by S. P. Tolstov (on the left).

New reconstruction option of Jonbos 4 house (on the right). (A. V. Vinogradov)

Kaltaminor jamoalari moddiy madaniyatning o'ziga xos xususiyatlarini bilishda yodgorliklar qazilmalarida aniqlangan turar-joy qoldiqlarining o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Bular jumlasiga Jonbos 4, Tolstov makoni, Qavat 7, Uchashi 131, Lavlakan 26, Darbozaqir 1,2 yodgorliklarida o'rganilgan turar-joylarni va ular tadqiqoti natijalarini keltirish mumkin.

Kaltaminor madaniyati yodgorliklarida madaniy qatlam yaxshi saqlangan manzilgohlarda turar-joy qoldiqlari ham aniqlangan. Xususan, Jonbos 4 makonida ustun o'rnatilgan chuqur izlari, yog'och to'sinlar kuygan qoldiqlari asosida uy-joyning o'rni aniqlangan (2-rasm). Bu ma'lumotlar umumiy maydoni taxminan 290 kvadrat metr atrofida, o'lchami 24 x 17 metr bo'lgan uyni tiklash imkonini berdi. S.P.Tolstov bu turar joyini yerning ustki sathiga qurilgan, suyri shaklli tomi qamish bilan qoplangan, balandligi 8-10 metr bo'lgan katta karkasli chayla sifatida rekonstruksiya qilishni taklif etgan. Uy markazida boshqa kundalik turmushga mo'ljallangan o'choqlardan o'zining o'lchami bilan farq qiladigan, diametri 1 metr 20 santimetr bo'lgan, aylana shaklda joylashgan katta o'lchamli o'choq umum jamoaga tegishli topinish, sig'inish bilan bog'liq deb talqin etilgan. Uyning devori bo'ylab bir nechta qator bo'lib joylashgan o'choqlar (qoldiq kulning qalinligi 0,5–2 santimetr) urug'da yashovchi uncha turg'un bo'lmagan (o'choq kullaridan qolgan izlarning betartib joylanishi) juft oilalarga tegishli bo'lgan deb qayd etilgan (Толстов 1948: 59–66).

S. P. Tolstov etnografik ma'lumotlarga murojaat etib, Jonbos uyini irokez, mandan, andaman uylari bilan qiyosiy taqqoslab, uy qurilishi o'lchamlari, tarkibiy tuzilishi ma'lumotlarni keltirganki, bu ma'lumotlar uyni rekonstruksiya qilishda muayyan rol o'ynagan.



3-rasm. Tolstov makoni. 1-uy. 1 – uying chegarasi; 2 – chuqurlar (ustun va yordamchi);
3 – kuygan daraxtning qoldig'i; 4 – o'choqlar; 5 – kuygan qizg'ish qum


Рис. 3. Стоянка Толстова. Дом 1. 1 – контур постройки; 2 – ямы (столбовые и хозяйственные);
3 – сгоревшее дерево; 4 – кострища и очаги; 5 – прокаленный красноватый песок

Fig. 3. Tolstov campsite. House 1. 1 – contour of the building; 2 – pits (post and utility); 3 – burnt tree;
4 – fire pits and hearths; 5 – calcined reddish sand

Jonbos 4 uyi haqida soha mutaxassisleri orasida boshqacha ilmiy yondashuvlar ham mavjud. M.P. Gryaznov, A.P. Okladnikovlar Jonbos uyini sakkiz burchakli, yarim yerto'la shaklidagi, sinch devorli va tomi gumbazsimon bo'lgan tuynukli uy deb rekonstruksiya qilishgan. (Грязнов, Окладников 1963: 97). A. V. Vinogradov uyni ikki tepalik qiyalashib tutashgan joy, ya'ni shu chuqurlik joyga qurilgan to'g'riburchakli uy deb hisoblaydi. B. Sayfullayev Jonbos uyi haqida uning sakkiz burchakli uy bo'lganligi borasida M.P. Gryaznov fikriga qo'shiladi, uying markaziy o'chog'ini uyni isitishga xizmat qilgan, uya tuynukdan kirilmagan va yon tomonidan kirish joyi bo'lgan degan fikrlarni bildirgan (Сайфуллаев 1992: 40–42). Fikrimizcha, bu uy to'g'risida uni deyarli yonma-yon bo'lgan yangi Tolstov makoni (Tolstov 1-uyi) turar-joyiga taqqoslab A.V.Vinogradov tomonidan keltirilgan ma'lumotlar birmuncha haqiqatga yaqin (Виноградов 1981: 148–155). Buni 1980-1986-yillar maboynida Tolstov makoni qazilmalari jarayonida aniqlangan 2–3-uylarning tadqiqoti natijalari ham tasdiqlaydi (Виноградов 1981; Виноградов 1982; Виноградов 1984)

Tolstov makoni qazilmalarida 3 ta turar-joylar o'rni aniqlangan (Виноградов 1981: 148–155; Виноградов 1981; Виноградов 1982; Виноградов 1984) (1-rasm). 1-uy shimoliy-g'arbiy – janubiy-sharqiy yo'nalishi bo'yicha yerusti sathiga qurilgan (3-rasm). Uying shakli to'g'riburchakli, karkas-ustunli ko'rinishda bo'lib, o'z tuzilishi va ichki tarkibiy qismlari bo'yicha Jonbos 4 uyiga o'xshash bo'lgan. Uy maydoni o'lchami 110–120 kvadrat metrni tashkil etgan, ichki qismida o'choqlar bo'lgan. Bu uyda taxminan 35–50 kishi (5 kishidan hisobga olganda 8–10 oila) yashagan bo'lishi mumkin (Виноградов 1981: 148–155).

Tolstov 1-uydan 20 metrlar chamasi sharqiy tomonda 2-uy qoldig'i qazib ko'rilgan. Qazishma ishlari ko'rsatishicha, 2-uy 1-uydan tuzilishi jihatidan keskin farq qilgan (4-rasm). 2-uy yarim yerto'la ko'rinishli uy bo'lib chiqdi. Demak, yerto'la 70–100 santimetr gacha chuqurlashtirilgan. Uya kirish eshigi janub tomondan bo'lgan. Yerto'laning chegarasi bo'ylab va uying markazida



4-rasm. Tolstov makoni 2-uy rejasi

Рис. 4. План стоянки Толстова. Дом 2

Fig. 4. Plan of Tolstov campsite: house 2

ustun izlari kuzatiladi. A.V. Vinogradovning yozishicha bu karkasli-ustunli yarim yerto'la shakldagi turarjoy bo'lgan. Shuningdek, uying markazida katta o'lchamli doimiy o'choq qoldig'i uchratilgan. Uyga (xuddi Tolstov 1-uyi kabi) janub tomondan xo'jalikka mo'ljallangan inshootlar (ustun izlarining ko'rsatishicha, ular ayvon ko'rinishli bo'lgan) kelib tutashgan (Виноградов 1981: 447).


Tolstov 2-uyidan shimoliy-sharqiy tomonda 3-uy qoldig'i o'rganilgan. Qazilmalar ko'rsatishicha, bu uy ham 2-uy kabi yarim yerto'la shakldagi karkacli-ustunli bo'lgan (5-rasm). Bu haqda yerto'la chuqurligi va

uning chegarasi bo'ylab aniqlangan ketma-ketlikdagi ustunlar o'rnatilganidan qolgan izlar dalolat beradi. Uning ichki tuzilishi, tarkibiy qismlari Tolstov 2-uyinikiga o'xshash. Uyga (xuddi Tolstov 2-uyi kabi) janub tomondan xo'jalikka mo'ljallangan inshootlar kelib tutashgan.

A. V. Vinogradov yozishicha, Tolstov 3-uyi o'z o'lchami bo'yicha Tolstov 2-uyidan kichikroq bo'lgan (Виноградов 1982: 452–453; Виноградов 1983: 470).

A. V. Vinogradov Kaltaminor jamoalariga oid Qavat 7 makoni qazilmalari jarayonida turarjoy qoldiqlarini aniqlashga erishgan (Виноградов 1968: 67–73; Виноградов 1981: 148–155). Turarjoy devor qoldiqlari, va qatorasiga yonma-yon uchratilgan ustun o'rni izlari asosida tiklangan (6-rasm). Uning uzun qismi 30–31 metr, kalta qismi 18–19 metrni tashkil etib, sathi taxminan 360x380 metr kvadrat maydonga ega bo'lib, sharq-shimoliy-sharq tomon yo'nalishda qurilgan va uyga kirish eshigi sharq tomondan bo'lgan. Turarjoyning markaziy qismida katta o'lchamli kul qoldig'i aniqlanib, bu umum jamoa o'chog'i sifatida talqin qilingan. A. V. Vinogradovning ta'kidlashicha, bu kul dog'larining sharqiy va shimoliy sharqiy qismidan nisbatan kichikroq o'lchamli hamda markaziy o'choqning janubiy qismida joylashgan chiqindilar tashlanadigan o'radan kattaroq o'lchamli qizil, jigar va sariq rangli bo'yoqlarning bo'laklari ko'plab topilgan va ular so'nmas olov bilan bog'liq urf-odatlariga daxldor, deb talqin etilgan.


A. V. Vinogradovning ko'rsatishicha, Qavat 7 makonida uchratilgan chuqurlar, ularning to'ldirilishi xarakteri, ularning joylashgan joyi va o'lchamlariga ko'ra 3 tipga bo'linadi: 1. Gulxanlar qoldig'i-chuqurlari (uncha chuqur bo'lmagan). Ular isish uchun qo'llanilgan yoki yoz vaqtda turmushda ishlatilgan o'choqlar bo'lgan (uy ichida); 2. Uy ichida devori bo'ylab joylashgan chuqur xo'jalik o'ralari. Ular oziq-ovqat zaxiralarini saqlashga mo'ljallangan; 3. Katta o'lchamli chiqindilar tashlashga mo'ljallangan o'ralar. Ayniqsa, uying sharqiy qismida markaziy



5-rasm. Tolstov makoni 3-uy rejasi
 Рис. 5. План стоянки Толстова. Дом 3
 Fig. 5. Plan of Tolstov campsite: house 3

va kunlik turmushga xizmat qiluvchi o'choqlarni tozalashdan chiqqan kulni tashlashga mo'ljallanib chuqurroq qazilgan o'ralar.

Zarafshon daryosining quyi qismi qadimgi janubiy o'zani hisoblanuvchi Mohandaryo vohasi Katta Tuzkon ko'li qirg'og'ida O'. Islomov tomonidan Kaltaminor jamoalariga tegishli Darbozaqir 1,2 yodgorliklari tadqiq etilgan (Гулямов, Исламов, Аскарлов 1966: 21–94). Darbozaqir 1 makoni ko'p madaniy qatlamli yodgorlik hisoblanib, pastki madaniy qatlamdan o'lchamlari 7x11,6 metr, maydon sathi 81 metr kvadrat bo'lgan to'g'ri burchakli shakldagi turar-joy qoldig'i topib o'rganilgan (7-rasm). O'. Islomov yozishicha, dorbozaqirliklarning uylari boshqa joylardagi Kaltaminor uylaridan farqli o'laroq qum yoki yumshoq qumloq ustida emas, balki qattiq tuproqli yer sathi ustida qurilgan va o'choqlar uying ichki qismiga qurilmasdan, uydan tashqari joyga qurilgan bo'lgan. V. M. Masson bunday holatni mazkur xonalar yashaydigan joy bo'lmagan, ular balki turmushda qandaydir funksiyani bajaruvchi yordamchi xona bo'lgan deb izohlagan (Массон 1966: 137). Uy sharqdan g'arb tomonga cho'zilgan holda qurilgan. Uying markazida kattaroq o'lchamli 2 ta tayanch ustunlarni ushlab turuvchi chuqurlik izi, uying devori bo'ylab ichki va tashqi ikki qator ustunlarni ushlab turuvchi chuqurlik izlari aniqlangan. Bu konstruksiyadan ko'rinib turibdiki, uy kirish eshigi sharqiy tomondan bo'lgan karkasli, usti qamish bilan yopilgan




6-rasm. Qavat 7 uyining rejasi
 Рис. 6. План дома, стоянка Кават 7
 Fig. 6. House plan, campsite of Kavats 7

chaylasimon ko‘rinishga ega bo‘lgan. Unda taxminan 30-35 kishidan iborat urug‘ jamoasi a‘zosi yashagan (8-rasm).

Qizilqumning ichki hududi Kaltaminar jamoalariga tegishli bo‘lgan Lavlakon 26 makoni qazilmasi jarayonida turar-joy qoldiqlari topilgan (9-rasm). Bu yerda ustun chuqurlari, kunlik turmushda qo‘llaniladigan o‘choqlar, xo‘jalik o‘ralari aniqlangan. A. V. Vinogradovning yozishicha, bu turar-joy yer sathi ustida qurilgan karkas ko‘rinishli ustunli uy bo‘lgan. Uy sathi maydoni taxminan 85-115 kvadrat metrni tashkil etgan va o‘z tuzilishi va tarkibiy qismiga ko‘ra Darbozaqir 1 makoni uyiga o‘xshash bo‘lgan. Faqatgina, bu uy janubiy-sharq va shimoliy-g‘arbga cho‘zilgan holda qurilgani bilan darbozaqirliklar uylaridan farqlanadi (Виноградов, Мамедов 1975: 256–275).

Quyi Zarafshonning qadimgi shimoliy o‘zanining tarkibiy qismi bo‘lgan Daryosoyning Uchashi irmog‘ida madaniy qatlami yaxshi saqlangan Uchashi 131 neolit yodgorligi tadqiq etilgan (Виноградов 1981: 64–78). Madaniy qatlam bilan bog‘liq bo‘lgan yer sathiga qurilgan 3 ta uy qoldig‘i joyi aniqlangan (asosan tosh qurollarining bir joyga to‘planganligi asosida). 1-va 2- uylar bir-biriga yonma-yon holda qurilgan bo‘lgan. Nisbatan maydoni sathi kattaroq (269 kvadrat metr) bo‘lgan uy ular qatorida joylashgan. Barcha uylar qurilishi janubiy-sharq va shimoliy-g‘arbga cho‘zilgan yo‘nalishda qurilgani. Uchashi uylari to‘g‘ri burchaksimon ko‘rinishli bo‘lgan, lekin ta’kidlash joizki bu uylarni rekonstruksiya qilish uchun ularning biron bir tarkibiy qismi elementlari saqlanib qolmagan, ularning izlari qazilma jarayonida aniqlanmagan. A. V. Vinogradovning taxminicha, har bir uyda 50–65 odam yashagan bo‘lishi mumkin.




7-rasm. Darbozaqir I turar-joyi rejasi.
 Рис. 7. План дома стоянки Кават 7
 Fig. 7. Residential plan of Darbozakir I

Shuningdek, ayni kungacha Kaltaminor neolit jamoalari moddiy madaniyati tadqiqoti jarayonida qo'lg'a kiritilgan qabr materiallari tahliliga to'xtalamiz.

O'rta Osiyo sarhadlari Kaltaminor neolit davri jamoalari qabr materiallari, qabr bilan bog'liq urf – odatlarni o'rganishda Tumek-Kichikjik yodgorligi qazilma ishlarining natijalari ahamiyatli hisoblanadi (Виноградов, Итина, Яблонский 1986: 7–79; Виноградов 1981: 107–109). Bu yodgorlik Amudaryo etagi qadimgi Sariqamish havzasida joylashgan. O'ttizga yaqin qabr qazilmalaridan ular ensiz, nisbatan chuqurroq qazilgani, mayit qabrga chalqancha, yelkasi bilan cho'ziltirilgan, bosh qismi shimoli-sharq tomon yo'naltirilgan holda qo'yilgani ma'lum bo'ldi. Tadqiqotchilar ko'rsatishicha, mayit tanasi qizil bo'yoq sepilgan joyga qo'yilgan va ba'zi holatlarda tana ustidan ham qizil bo'yoqlar sepilganligi faktlari aniqlangan. Mayitlar yonidan, tosh qurollari, oziq-ovqat bo'laklari qoldiqlari saqlangan sopol idish parchalari, mayit tana a'zolari bilan bog'liq bo'lgan taqinchoqlar topilgan. Masalan, bo'yinga osib yurishga mo'ljallangan maxsus teshigi bo'lgan to'ng'izning qoziq tishidan yasalgan yirik taqinchoq (tumor) ko'krak ustki qismidan topilgan (10-rasm).

Jonbos 4 va Tolstov 1-uyi oralig'idagi taqirdan ham 2 ta neolit davriga oid nisbatan buzilgan holatda bo'lgan qabr topilgan. 1-qabr 140 x 80 santimetr o'lchamli bo'lib, sharqdan g'arb tomon yo'nalishga ega. Mayitning saqlanish holati juda yomon ko'rinishga ega. Yonidan turli chuqurlikda tosh buyumlar, sopol idish parchalari, yuzdan ortiq taqinchoqlar namunalari topilgan. 2-qabr 1-qabrdan sharqiy tomon undan pastroq bo'lgan joyda joylashgan. O'lchami, yo'nalishi va mayit yonidan topilgan materiallar deyarli bir xil, faqatgina bu qabr chegarasidan bo'yoq bo'laklari topilgan (Виноградов 1981: 88–89).



8-rasm. Darbozakir II turar-joyi rejasi.
 Рис. 8. План жилого дома Дарбозакир II
 Fig. 8. Residential plan of Darbozakir II


Janubi-Sharqiy Ustyurtda Kaskajol yodgorligidan bir nechta qadimgi qabrlar o'rganilgan va ulardan bittasi neolit davri so'nggi bosqichlarida yashagan jamoalariga tegishli bo'lgan. Qazish jarayonida mayitning yaxlit tana suyaklari topilmagan, lekin turkum holatda ikki yon tarafi va qirralariga yaxshi ishlov berilgan o'q-yoy uchlari hamda chig'anoqlardan yasalgan taqinchoqlar topilgan. Qabr tuzilishi, tomonlarga nisbatan yo'nalishi, undan topilgan qizil bo'yoq bo'laklari, tosh qurollariga ko'ra bu qabr Tumek-Kichikjik qabrlariga o'xshash (Бижанов 1985: 250–252).

Munozara

Yuqorida imkoniyat darajasida Kaltaminor jamoalariga tegishli yodgorliklar qazilma ishlari jarayonida qo'lga kiritilgan turar-joylar va qabr materiallari haqidagi ma'lumotlarni bayon qildik. Bu ma'lumotlar neolit davri jamiyati, ya'ni ijtimoiy munosabatlar, urug'chilik tamoyillari, odamlar turmush tarzi, xo'jalik yumushlari, ma'naviy

dunyoqarashlari, e'tiqodlari, madaniy aloqalarini rekons-truksiya qilish imkonini beradi. Masalan, turar-joylar odamlar turmush tarzining tarkibiy elementi hisoblanib, bu haqidagi ma'lumotlar tarixiy davr jamiyati, urug'chilik tamoyillari, uy-joylar qurilishi uslublari, materiallari, uylarning ichki tarkibiy tuzilmalari, oila munosabatlari, diniy e'tiqodlarini tiklashga asos bo'ladi. Xususan, ulardan neolit davri urug' a'zolari yer ustiga qurilgan yoki yarim yerto'la shaklidagi karkasli-ustunli chaylasimon uylarda yashaganligi, uying ichida markaziy o'choq va uning atrofida har juft oilaning uy-ro'zg'orlarda foydalanadigan o'choqlari bo'lganligi, yashash uylari yonida xo'jalik yuritishga xizmat qiluvchi, oziq-ovqat zaxiralari saqlanadigan xonalari borligi, uyda qancha odam yashaganligi kabi ma'lumotlar olinadi, odamlar urug'chilik tuzumida yashaganligi tiklanadi.

Xuddi shunday, qabr materiallari ham Kaltaminor jamoalarining ijtimoiy munosabatlari, qabrlar tuzilishi, mayitlar qo'yilishi holatlari, qabrga mayit yoniga qo'yiladigan narsa-predmetlar va ularning davr ijtimoiy tengsizligini bilishdagi ahamiyati, dafn bilan bog'liq rasm-rusumlar, diniy e'tiqod, odamlar antropologik tiplarini tiklashga asos bo'ladi. Masalan, Tumek-Kichikjik qabrlaridan birida mayit yonidan ichiga gulxanda kuydirilgan go'sht bo'laki solib qo'yilgan idish bo'laki topilgan. Qabrlardan topilgan zeb-ziyat va taqinchoqlarning ahamiyati juda muhim. Silindrsimon chig'anoq (dentalium), ichi teshik bo'lgan parrandalarning boldir suyaklaridan hamda hayvonlarning kichik qoziq tishlaridan osib yurishga mo'ljallangan taqinchoqlar ko'p topilgan.



9-rasm. Lavlakon makoni turar-joyi plani.

Рис. 9. План жилого дома Лявлakon 26


Fig. 9. Residential building plan Lavlacon 26

Tumek-Kichikjik qabr materiallarining o'rganilishi jamoalar ijtimoiy hayotining ba'zi elementlarini tiklash imkonini berishi haqida N.O'. Xolmatov o'z yondashuvini bildirgan va 2 ta xususiyatni ta'kidlagan: "1. Qabr materiallari orasida mehnat qurollarining nisbatan kam holda uchrashining sababi, ular umum urug' jamoasi mulki hisoblangan, dafn etilgan kishi esa undan faqat hayot davrida foydalangan, xolos.; 2. Ba'zi bir qabrlarda mehnat qurollari, uy-ro'zg'or buyumlarining deyarli uchramasligi, aksincha ba'zi qabrlar materiallarining boyligi neolit davri urug' jamoa a'zolari orasida ijtimoiy tengsizlik jarayoni kurtaklarining boshlanganligini asoslaydi." Bu fakt Tumek-Kichikjik yodgorligi qabrlari o'rganilishi natijalarida yaqqol namoyon bo'lgan (Xolmatov 2008: 68–71).

Kaltaminor jamoalariga tegishli Tumek-Kichikjik qabrlari odamlarining antropologik tipi T. A. Trofimova, L. T. Yablonskiylar tomonidan o'rganilgan. T.A. Trofimova ularni asosan protoyevropoid irqiga, 1 dona ayol kishiga oid bosh chanoqni esa Sharqiy O'rta yer dengizi tipiga mansub deb hisoblaydi. L.T. Yablonskiy Tumek-Kichikjik antropologik manbalarini o'rganib, oldingi tadqiqotchining fikrini qo'llagan holda, qator bosh chanoqlarda yevropeoid irqining Sharqiy O'rta yer dengizi tipiga xos belgilar ko'pchilikni tashkil etishini alohida ta'kidlaydi (Виноградов, Итина, Яблонский 1986: 7–79).

Kaltaminor jamoalariga oid turar-joylar va qabr materiallariga oid yuqorida keltirilgan ma'lumotlarning neolit davri ijtimoiy tuzumi, urug'doshlik tamoyillari, odamlar turmush tarzi, moddiy madaniyati, ma'naviy hayoti, dunyoqarashi, e'tiqodlari, madaniy aloqalari, antropologik tipini rekonstruksiya qilishda o'rni va ahamiyati beqiyos hisoblanadi. Buni quyidagi tahlil natijalari yanada to'ldiradi deb hisoblaymiz.

Xususan, turar-joylar neolit odamlari kunlik turmush tarzining tarkibiy qismi hisoblanadi. Ular tarixiy davr jamiyati, ijtimoiy taraqqiyot, urug'chilik tuzumining tamoyillari, odamlar kunlik turmush tarzi, oila-nikoh munosabatlari, xo'jalik yumushlari, diniy e'tiqodini rekonstruksiya qilish imkonini beradi: 1. Neolit davri odamlarining turmush tarzini tiklash; 2. Odamlarning



10-rasm. Tumek-kichikjik qabristonining 16,19 qabrlari
Рис. 10. Могильник Тумек-Кичикжик, погребения 16 и 19
Fig. 10. Tumek-Kichikzhik burial ground, burials 16,19

yashash uylarini tiklash; 3. Turar-joylarning turlari, ularning qurilishi arxitekturasi, qurilish materiallarini tiklash; 4. Uylarning o'lchamlari, ularning ichki tarkibiy tuzilmalari (markaziy o'choq, juft oilalarga tegishli ro'zg'or o'choqlar), urug' a'zolarining yashash sonini tiklash; 5. Uylarning jamiyat ijtimoiy munosabatlarini tiklash (urug'chilik tuzumi tamoyillari, oila-nikoh ko'rinishlari); 6. Neolit davri odamlarining xo'jalik yumushlarini tiklash (xo'jalik xonalari, oziq-ovqatlar zaxirasini saqlaydigan o'ralar); 7. Turar-joylarning qurilishi o'sha davr paleogeografiyasi, iqlimiy sharoitini tiklash; 8. Turar-joylar neolit odamlari e'tiqodi bilan bog'liq rasm-rusumlar, urf-odatlarini tiklash imkonini beradi.

Qabr materiallari neolit davri jamiyati va undagi ijtimoiy munosabatlarni, jamoalarning moddiy, ma'naviy madaniyati, odamlar antropologik tiplarini, etnik belgilarini rekonstruksiya qilish imkonini beradi: 1. Neolit davri odamlarining ma'naviy hayoti, dunyoqarashini tiklash, 2. Qabrlar va ularning tuzilishi, o'lchamlari tiklash; 3. Maytlar va ularning qo'yilishi holatlarini tiklash; 4. Mayit yoniga qo'yilgan narsa-predmetlarni tiklash (tosh qurollari, sopol idishlar, taqinchoqlar); 5. Dafn bilan bog'liq urf-odat, rasm-rusumlarni tiklash (mayt qo'yilishidan oldin qabr yerga va mayitning ustiga qizil bo'yoqlar sepish, mayit yoniga oziq-ovqatlar solingan sopol idishlarning qo'yilishi); 6. Qabr materiallarining boy va kambag'al bo'lishi-ijtimoiy tengsizlik ko'rsatkichi

ekanligini asoslash; 7. Etnik jarayonni yoritish; 8. Mayitning tana a‘zolari asosida antropologik tipni aniqlash; 9. Mayit yoniga qo‘yilgan narsa-predmetlardan madaniy aloqalarni tiklash; 10. Taqinchoqlar boyligi va ular yasalgan materiallardan odamlarning urug‘ jamoasida tutgan mavqeyi, nufuzini aniqlash (to‘ng‘iz qoziq tishidan yasalgan taqinchoq (tumor), qimmatbaho toshlar-feruza, aqiq) imkonini beradi.

Xulosa

Yuqorida keltirilgan turar-joylar, qabr materiallari haqidagi manba, ma‘lumotlar Kaltaminor neolit jamoalari moddiy madaniyatining qirralarini rekonstruksiya qilish imkon beruvchi, asoslovchi faktik materiallar hisoblanadi.

1. Turar-joylar neolit davri odamlarining kunlik turmush tarzini rekonstruksiya qilishga asos beruvchi birlamchi manba hisoblanib, o‘z navbatida tarixiy davr paleogeografiyasi, iqlimiy sharoitlarini, jamiyati va uning ijtimoiy munosabatlari, urug‘chilik tuzumi tamoyillarini, aholi xo‘jalik mashg‘ulotlarini, ma‘naviy hayoti, dunyoqarashini tiklash imkonini beradi.

2. Qabr materiallari moddiy, ma‘naviy madaniyati, dunyoqarashini tiklashga asos beruvchi birlamchi manba hisoblanib, o‘z navbatida aholi e‘tiqodi va dafn udumlari bilan bog‘liq rasm-rusumlari, urf-odatni, antropologik tiplarni, madaniy aloqalarni rekonstruksiya qilishga asos bo‘ladi.

3. Jonbos uy rekonstruksiyasi to‘g‘risida uni deyarli yonma-yon bo‘lgan yangi Tolstov makoni (Tolstov 1-uyi) turar-joyiga taqqoslab A.V.Vinogradov tomonidan keltirilgan ma‘lumotlar haqiqatga birmuncha yaqin. Buni 1980–1986-yillar maboyinida Tolstov makoni qazilmalari jarayonida aniqlangan yangi 2-3- uylarning tadqiqoti natijalari ham tasdiqlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- Андреанов Б. В.* Древние оросительные системы Приаралья. Москва: Наука, 1969. 254 с.
- Бижанов Е. Б.* Первое неолитическое погребение на Устюрте // СА. 1985, №1. С. 250–252.
- Виноградов А. В.* Древние охотники и рыболовы Среднеазиатского междуречья // ТХАЭЭ. Т. XIII. М., 1981. 176 с.
- Виноградов А. В., Итина М. А., Яблонский Л. Т.* Древнейшее население низовий Амударьи. Археолого-палеоантропологическое исследование // ТХАЭЭ. XV. Москва, 1986. 200 с.
- Виноградов А. В.* Исследование стоянки Толстова. // АО. 1980, Москва: Наука, 1981. С. 447.
- Виноградов А. В.* Неолитические памятники Хорезма // МЭХ. вып.8. Москва, 1968. С. 179
- Виноградов А. В.* Работы Джанбасского отряда // АО 1981, Москва: Наука, 1982. С. 452–453.
- Виноградов А. В.* Раскопки стоянки Толстова // АО 1982, Москва: Наука, 1983. С. 470.
- Виноградов А. В.* Работы на стоянке Толстова // АО 1984, Москва: Наука, 1986. С. 456.
- Виноградов А. В.* Раскопки неолитической стоянки Толстова в 1981 г. (шестой сезон) // Научный отчет Джанбасским отрядом Хорезмской археолого-этнографической экспедиции ИЭ АН СССР. 1981 г. / Архив Самаркандский институт археологии. Фонд, Ф.1. О.1. Д.12.
- Виноградов А. В.* Отчет о работах на стоянке Толстова в 1982 г. // Научный отчет Джанбасского отряда Хорезмской археолого-этнографической экспедиции ИЭ АН СССР. 1982 г. / Архив Самаркандский институт археологии. Фонд, Ф.1. О.1. Д.18.
- Виноградов А. В.* Отчет о раскопках на стоянке Толстова в 1984 г. // Научный отчет Джанбасского отряда Хорезмской археолого-этнографической экспедиции ИЭ АН СССР. 1985 г. / Архив Самаркандского института археологии. 1985. Фонд, Ф.1. О.1 Д. 29.
- Грязнов М. П., Окладников А. П.* Первобытнообщинный строй. Каменный век // История Киргизии. Т. 1. Фрунзе: Киргизгосиздат, 1963. С. 33–54.
- Гулямов Я. Г., Исламов У., Аскарлов А.* Первобытная культура и возникновение орошаемого земледелия в низовьях Зарафшана. Ташкент: Фан, 1966. С. 21–94

- Ғуломов Я. Ғ. Хоразмнинг суғорилиш тарихи. Тошкент: Фан, 1959. 324 б.
- Массон В. М. Экономика и социальный строй древних обществ (в свете данных археологии). Ленинград: Наука, 1976. 192 с.
- Низовья Амударья, Сарыкамыш, Узбой. История формирования и заселения / Отв. ред. С. П. Толстов. МХЭ. Вып. 3. Москва: Изд-во Академик наук СССР, 1960. 348 с.
- Сайфуллаев Б. Қ. Жонбос-қалъа 4 уйи ҳақида. Марказий Осиё ибтидоий давр археологияси ва палеоэкологияси муаммолари. Самарқанд: 1992. Б. 40–42.
- Толстов С. П. Древний Хорезм / Отв. ред. М. Н. Тихомиров. Москва: Изд-во МГУ, 1948. 352 с., 88 табл.
- Холматов Н. У. Мезолит и неолит Нижнего Зарафшана. Ташкент: Фан, 2007. 203 б.
- Холматов Н. У. Ўзбекистон неолит даври жамоалари моддий маданияти, Ташкент, Фан, 2008. 181 б.

REFERENCES

- Andrianov B. V. 1969. *Drevniye orositelnye sistemi Priaralya (Ancient irrigation systems of the Aral Sea region)*. Moscow: Science Publ., 254. (In Russian).
- Gryaznov M. P., Okladnikov A. P. 1963. *Pervobitnoobshinniy stroy (Primitive communal system)*. *Istoriya Kirgizuu (History of Kyrgyzstan)*. Vol. 1. Frunze: Kirgizgosizdat Publ., 33–54. (In Russian).
- Gulamov Ya. G. 1959. *Khorezmning sugorish tarihi (The history of Khorezm irrigation)*. Tashkent: Academy of Sciences of the Uzbek SSR Publ., 324. (In Uzbek).
- Gulyamov Ya. G., Islamov U. I., Askarov A. A. 1966. *Pervobytnaya kul'tura i vozniknovenie oroshaemogo zemledeliya v nizov'yakh Zarafshana (Primitive culture and the emergence of irrigated agriculture in the lower reaches of the Zarafshan)*. Tashkent: FAN Publ., 252. (In Russian).
- Bizhanov E. B. 1985. *Pervoye neoliticheskoye pogrebeniye na Ustyurte (The first Neolithic burial on Ustyurt)*. // In SA (Soviet archeology). No 1. Moscow: Nauka Publ., 250–252 (In Russian).
- Kholmatorov N. U. 2007. *Mezolit i neolit Nizhnego Zarafshana (Mesolithic and Neolithic of the Lower Zarafshan)*. Tashkent: FAN Publ., 203. (In Uzbek).
- Kholmatorov N.U. 2008. *O'zbekiston neolit davri jamoalari moddiy madaniyati (Material culture of Neolithic communities of Uzbekistan)*. Tashkent: Fan Publ., 181. (In Uzbek).
- Masson V. M. 1976. *Ekonomika i sotsialniy stroy drevnix obshestv (Economy and social structure of ancient societies) v svete dannix arxeologii (in light of archaeological data)*. Leningrad: Nauka Publ., 192. (In Russian).
- Nizovya Amudari, Sarikamish, Uzboy. (Lower reaches of the Amu Darya, Sarykamysh, Uzboy.) *Istoriya formirovaniya i zaseleniya (History of formation and settlement)*. 1960. In Tolstov S. P (ed.). In *Materiali Xorezmskoy ekspeditsii (Materials of the Khorezm expedition)*. Issue 3. Moscow, 348. (In Russian).
- Sayfullaev B. K. 1992. *Jonbos-qala 4 uyi haqida. Markaziy Osiyo ibtidoiy davr arxeologiyasi va paleoekologiyasi muammolari (About the house of Jonbos-kala 4. Problems of archeology and paleoecology of the primitive period of Central Asia)*. Samarqand: 40–42. (In Uzbek)
- Tolstov S. P. 1948. In Tihomirov M. N. (ed.). *Drevnij Khorezm (The Ancient Khorezm)*. Moscow: Moscow State University Publ., 352, 88 tabl. (In Russian).
- Vinogradov A. V. 1981. *Drevnie okhotniki rybolovy Sredneaziatskogo mezhdurech'ya (Ancient hunters and fishermen of the Central Asian interfluve)*. In *Trudy Khorezmskoj arkheologo-etnograficheskoy ehkspeditsii (Proceedings of the Khorezm Archaeological and Ethnographic Expedition)*. Vol. XIII. Moscow: Nauka Publ., 172. (In Russian).
- Vinogradov A. V., Itina M. A., Yablonsky L. T. 1986. *Drevneysheye naseleniye nizoviy Amudari (The most ancient population of the lower reaches of the Amu Darya)*. In TKHAE (Proceedings of the Khorezm Archaeological and Ethnographic Expedition). Vol. XV. Moscow: Nauka Publ., 200. (In Russian)
- Vinogradov A. V. 1981. *Issledovaniye stoyanki Tolstova (Exploration of the Tolstova site)*. In *Arxeologicheskiye otkritiya 1980 goda*. Moscow: Nauka Publ., 447. (In Russian)

- Vinogradov A. V. 1982. *Raboti Djanbasskogo otryada (Works of the Janbass detachment)*. In *Arxeologicheskiye otkritiya 1981 goda (Archaeological discoveries of 1981)*. Moscow: Nauka Publ., 452–453. (In Russian)
- Vinogradov A. V. 1983. *Raskopki stoyanki Tolstova (Excavations of the Tolstova site)*. In *Arxeologicheskiye otkritiya 1982 goda (Archaeological discoveries of 1982)*. Moscow: Nauka publ., 470. (In Russian)
- Vinogradov A. V. 1986. *Raboti na stoyanke Tolstova (Works at the Tolstova parking lot)*. In *Arxeologicheskiye otkritiya 1984 goda (Archaeological discoveries of 1984)*. Moscow: Nauka publ., 456. (In Russian)
- Vinogradov A. V. *Raskopki neoliticheskoy stoyanki Tolstova v 1981 g. (shestoy sezon). (Excavations of the Neolithic site of Tolstova in 1981) (sixth season)*. Nauchniy otchet Djanbasskim otryadom Xorezmskoy arxeologo-etnograficheskoy ekspeditsii IE AN SSSR. 1981 g. / Arxiv Samarkandskiy institut arxeologii. Fund I, Inventory I, File 12. (In Russian)
- Vinogradov A. V. *Otchet o rabotax na stoyanke Tolstova v 1982 g. (Report on the work at the Tolstov's site in 1982)*. Nauchniy otchet Djanbasskogo otryada Xorezmskoy arxeologo-etnograficheskoy ekspeditsii IE AN SSSR. 1982 g. Arxiv Samarkandskogo instituta arxeologii. Fund I, Inventory I, File 18. (In Russian)
- Vinogradov A. V. *Otchet o rabotax na stoyanke Tolstova v 1984 g. (Report on excavations at the Tolstov's site in 1984)*. Nauchniy otchet Djanbasskim otryadom Xorezmskoy arxeologo-etnograficheskoy ekspeditsii IE AN SSSR. 1985 g. Arxiv Samarkandskogo instituta arxeologii. Fund II, Inventory I, File 29. (In Russian).

HISTORICAL RECONSTRUCTION OF THE SOCIO-ECONOMIC AND SPIRITUAL LIFE OF THE KALTAMINOR COMMUNITIES

© 2024. **Khaitboy Egamberganov**

Karakalpak State University named after Berdakh

Key words: Stone Age, Neolithic, Kaltaminor culture, historical reconstruction, dwellings, burial material, Zhanbas 4, Tolstoy site, material and spiritual culture, social inequality, anthropological type, cultural connections.

This article is devoted to the historical reconstruction of the socio-economic and spiritual life of Celteminar communities based on settlements and burial materials. It examines a range of archaeological sites investigated by S. P. Tolstov, A. V. Vinogradov, and others, including Dzhanbas 4, Kavay 7, the Tolstov site, Uchchi 131, Lavlyakan 26, and Darbozakir 1 and 2, as well as Neolithic burial materials from the Tomek-Kichikjik graves, the Tolstov site burial, and the Koskajol Neolithic burial in southeastern Ustyurt studied by E. Bizhanov and members of the Khorezm archaeological expedition. In the article, dwellings are considered as key structural elements that reflect the lifestyle of past populations. The information obtained from these sites serves as a primary source for reconstructing aspects of the historical period, including the principles of tribal organization, construction techniques, building materials, architectural features, family and marital structures, and religious beliefs. Funerary materials are treated as primary evidence for reconstructing social relations, material and spiritual culture, worldviews of the Neolithic era, social stratification, spiritual life, beliefs associated with burial rites, artistic traditions, and anthropological types that allow to trace cultural connections. Additionally, the article introduces new materials into scientific circulation, specifically those related to the second and third houses at the Tolstov site.

**QASHQADARYO VOHASINING SUG‘ORILISH TARIXIGA DOIR
MAXSUS TADQIQOT XUSUSIDA**

**S. Suyunov. Qashqadaryo vohasining sug‘orilish tarixi
Qarshi “Nasaf”, 2023. 271 b.**

O‘rta Osiyo jumladan, O‘zbekistonning qadimgi tarixiy- madaniy vohalari sanalmish ko‘xna Xorazm, Baqtriya, Sug‘d, Farg‘ona, Choch, Ustrushona kabi o‘lkalarda uzoq o‘tmish zamonlardan sun‘iy sug‘orish tizimlariga asoslangan o‘troq dexqonlar xo‘jaligiga asos solingan va asrlar osha o‘z tadrijiy taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tgan. Ta’kidlash joizki, bobodehqonlar yurti O‘zbekistonning obikor dehqonchilik madaniyatini sun‘iy sug‘orish inshootlari – yirik miqyosdagi magistral kanallar, ulardan bosh olgan shohariqlar, dala ariqlari, paykal ariqlari, shuningdek, oqar suv zahiralari mavsumiy saqlash uchun suv omborlari, dambalar kabi katta, kichik inshootlarsiz tasavvur qilish qiyin. Arxeologik tadqiqotlar, izlanish natijasida bronza davrida o‘troq, obikor dehqonchilik jadal suratlar bilan rivojlanish pallasiga kirgan bo‘lsa, ilk temir va ayniqsa, antik davrda ushbu jarayon katta taraqqiyot darajasiga chiqqildi. Qadimgi Xorazm, Zarafshon vohasi, Farg‘ona vodiysi, Ustrushona o‘lkasi kabi yirik madaniy o‘lkalarda V. Alekseyev, S. Tolstov, Ya. G‘ulomov, A. Muhammadjonov, A. Bilolov, S. Anorboyev, S. Suyunov kabi mutaxassislar o‘tkazgan tadqiqotlar orqali ushbu jabhadagi tarixiy bilimlarning ko‘lami oshdi, ko‘plam munozarali masalalar o‘z yechimini topdi.

Eslatish joizki, Qashqadaryo vohasida o‘tkazilgan tadqiqotlar natijasida ilk temir davrida sug‘orma dehqonchilikka asoslangan agrar ishlab chiqarish Naxshab vohasida Yerqo‘rg‘on, Kesh muzofotida Sangirtepa, Podayoqtepa kabi aholi manzillari misolida qayd etilgan. Shunday bo‘lsada, Qashqadaryo vohasida ilk dehqonchilik madaniyatini vujudga kelishi va uning tagzamini hisoblangan irrigatsiya inshootlarining shakllanishi, taraqqiyotini maxsus ilmiy reja yoki loyiha ostida o‘rganish amalga oshirilmagan edi.

Shuning uchun ham muallif S. Suyunov tomonidan amalga oshirilgan mazkur “Qashqadaryo vohasining sug‘orilish tarixi” mavzusidagi monografik tadqiqot Janubiy Sug‘dning moddiy va madaniy va agrar ishlab chiqarish, o‘lka iqtisodiy hayotining muhim tarkibiy qismi bo‘lgan irrigatsiya tarixini o‘rganishga ulkan hissa bo‘lib qo‘shilishi shubhasizdir.

Monografiyaning I bobida “Qashqadaryo vodiysining tabiiy geografik o‘rni va uning tavsifi bo‘yicha ma’lumotlar berilgan. Vodiyni shakllanishida oqar suv manbalarining o‘rni, Hisor tog‘ tizmasining janubi-g‘arbiy qismidagi to‘rtlamchi davr yotqiziqlari, Qashqadaryoga ikki qirg‘oq tomondan qo‘shilgan – Qalqamasoy, Sho‘robsoy, Makridsoy, Oqchobsoy kabi nisbatan kam suvli jilg‘alar, daryoning yuqori oqimida joylashgan, qor va suvlaridan to‘yinadigan sersuv Oqsuvdaryo, Tanxozdaryo va Qizildaryo kabi irmoqlarning tavsif bayoni berilgan. Ushbu bo‘limda Qashqadaryo havzasi (28,6 ming kv.km), Kitob-Shahrisabz botig‘i (kotlovan), G‘o‘zor-Qarshi vohalarining fizik-geografik jihatlari, ularning iqlimi, o‘simlik dunyosi, siyosiy xususiyatlari, farqlariga alohida e’tibor berilgan va yaxshi yoritilgan.

Yozma manbalar xabarlarini, ayniqsa arxeologik qazuv tadqiqotlaridan ma’lumki, Qashqadaryo vohasida arxaik davrlardan boshlab urbanizatsiya jarayonlari sodir bo‘lgan, aholi o‘troq dehqonchilik, hunarmandchilik bilan shug‘ullangan. Qadimgi Naxshab – Nasaf o‘lkasida Yerqo‘rg‘on, Ko‘hna Kesh mamlakatida Sangirtepa, Podayoqtepa kabi ilk temir davri turarjoylarini qayd etilishi, o‘rganilishi natijasida Qashqa vohasi sug‘orma dehqonchiligining qadimiyligi o‘z isbotini topgan. Shu ma’noda, voha sun‘iy sug‘orilishi tarixiga ham uzoq davrlardan asos solingani va bu samarali faoliyat uzluksiz davom etgani haqida tarixiy manbalarda ma’lumotlar mavjud. Monografiya I bobining 2-bo‘limi aynan ushbu masalalar tahliliga bag‘ishlangan

Ushbu bo'limda Avesto, ahamoniylar davri yozma yodgorliklari, Yunon-Rim mualliflari asarlari Qadimgi Xitoy xronologiyalaridagi ma'lumotlar, sug'd, arab, fors tilidagi manbalarda Janubiy Sug'd mamlakati, aholisining turmush tarzi, xo'jaligi, shahar-kentlari, rustoqlari, yo'llari va masofalari haqida qisqa, eksklyuziv ma'lumotlar berilgan.

Muallifning tahlillariga ko'ra "IX asrda Kesh (Shahrisabz) va Nasaf (Qarshi shaharlari va ularning atrofidagi sug'oriladigan yer maydonlari Asrud (Qashqadaryo) daryosi hisobidan o'zlashtirilgani aytiladi. Kesh Asrud (Qashqadaryoning nomi) Kesh rustoqining (shahri - P.M.) shimol tomonidan oqib o'tishi qayd etilgan" (15-bet). O'rta asr manbalarida, shuningdek, "Nahr al-qassorin", "Xaruda", "Xushk rud", "Xuzarrud"... kabi oqar suv manbalarini tarixiy nomlari, ularning hozirgi atalishi kabi masalalarga aniqlik kiritilgan. (13–23-betlar).

Mazkur I bobning 3-bo'limi "Voha sug'orilish tarixining o'rganilishi"ga bag'ishlanib, unda muallifning yozishicha, Qashqadaryoning sug'orma dehqonchilik madaniyati so'nggi bronza va ilk temir davrida shakllangan, ushbu fikrlarga ilmiy asos sifatida Kitob-Shahrisabz mikro vohasida qayd etilib o'rganilgan mil.avv. IX–VIII asrlarga oid manzilgohlar keltirilgan (23-bet). Aynan ushbu manzilgohlar – Podayotoqtepa, Uzunqir, Sangirtepa Zarafshon tizmalaridan bosh olgan Sho'robsoy havzasida, qulay geografik o'rin va tabiiy-iqlim sharoitida joylashgan bo'lib, pirovardida ular Qadimiy Keshning ilk shahar maskanlariga aylanganlar.

Ushbu bo'limda sug'orma dehqonchilik tarixi bo'yicha yirik mutaxassis Y. G'. G'ulomov rahbarligida Mohandaryo ekspeditsiyasi va uning a'zolari – A. R. Muhammadjonov, A. A. Asqarov, R. H. Sulaymonov, E. Dadaboyev kabi yosh mutaxassislar tomonidan XX asrning 60-yillarida o'tkazilgan tadqiqotlar va ularning natijalari tahlil qilingan. Ma'lum bo'lishicha, aynan shu davrda Ya. G'ulomov tomonidan Zarafshondan bosh olgan Darg'om kanalining yirik o'zani Eski Anhor shoh arig'i nafaqat hozirgi Nurobod (Samarqand viloyati – P. M.) vohasini, balki Qashqa vohasiga qadar oqib borgani, Qashqadaryo suvlari uning etagida joylashgan – Xo'jamuborak, Shayx va Ko'hna shahar-kentlarni ichimlik va xo'jalik paykallari sug'orilishiga sarflangani o'z isbotini topgan (23–35-betlar).

Monografiyaning II bobida "Qashqadaryo vodiysining suv manbalari va sug'orish inshootlari" haqida mavjud ma'lumotlar, muallifning shaxsan o'zi tomonidan aniqlangan sun'iy sug'orish inshootlari, ularning suv sig'imi, o'lchamlari kabi barcha statistik ko'rsatkichlar keltirilgan, talqin va tahlil qilingan. Jumladan ushbu bobning 1-bo'limida "Qashqadaryo, Oqsuvdaryo, Qizildaryo, Yakkabog'daryo, Tanxozdaryo va G'uzordaryo o'zanlarining geografik joylashuvi, yillik o'rtacha suv oqimi, vegetatsiya davridagi maksimal suv hajmi, sug'orma paykallari, ichimlik suv sarfi, aholi punktlari haqida ma'lumotlar berilgan.

O'rta Osiyo, jumladan mintaqaning ikki azim oqar suv manbai – Amu va Sirdaryo o'rtasidagi madaniy vohalar aholisi qadim tarixida sug'orma dehqonchilikka asoslangan o'troq hayot ishlab chiqarishda sun'iy sug'orish inshootlari va tizimlarining ahamiyati nihoyatda katta bo'lgan. Shu sababli, monografik tadqiqotning 2; 3; 4-bo'limlarida Eski Anhor, Qarshi kanallari, Chimqo'rg'on, Hisorak, Pachkamar suv omborlari, Qorabog' va Langar sel suvini yig'ish omborlarining eng avvalo qishloq xo'jaligi taraqqiyotida tutgan o'rni, inson omili bilan bunyod etilgan shohariq, kanallarning qurilish tarixi, faoliyatining uzviyligi, xronologiyasi masalalari ochib berilgan. Muallifning yozishicha, Eski Anhor kanali vohada bunyod etilgan eng qadimgi inshoot bo'lib, u Zarafshon daryosidan bosh olgan Darg'om kanalining davomidir. Eski Anhor qadimdan nafaqat Nurobod vohasining sharqiy qismini suv bilan ta'minlagan, balki Qashqadaryo vohasining asosiy suv manbalaridan biri bo'lib kelgan" (42-bet). Shuningdek, ushbu bo'limda Abdullaxon II (XVI asr) davrida Qarshi daryosini suv bilan ta'minlagan Qorakamar kanali ham tahlil qilingan.

Rasmiy tarixdan ma'lumki, bugungidek oqar suv taqchilligi avvalgi zamonlarda ham agrar xo'jalik sohiblari uchun katta muammolardan hisoblangan. Bunday zonalar sirasiga ko'proq oqar suv manbalarining quyi oqim qismi cho'l-dasht bilan chegaradosh hududlar va ayniqsa, katta qor, asriy muzliklar zahirasiga kam ega bo'lgan past tog'lardan bosh olgan daryochalar, soy, buloqlar havzasidagi yerlar kirgan. Bunday hollarda qadim va o'rta asr mirob, muhandislari tomonidan zahira saqlash uchun suv omborlari, sel suvi uchun mo'ljallangan bandlaro qurish Movarounnahrda odat tusiga kirgan Jizzax

viloyati Forish tumani Nurota past tog' tizmalari sarhadlarida qurilgan – Xonbandi (X asr), G'ishtband (XVI asr) kabi hozirgacha saqlanib qolgan suv omborlarini bunga misol qilib ko'rsatish mumkin.

Aynan mana shunday ehtimol, yanada katta ko'lamli muammo Qashqadaryo vohasi, Janubiy Sug'dda azaldan mavjud bo'lib, suv omborlari qurilishini taqozo qilgan. S.Suyunovning ta'kidlashicha, "X–XI asrlarda Movarounnahrda ilm-fan tarixida sug'orish ishlari murakkab bo'lgan joylarga suv olib borish yer sathi baland yerlarga suv chiqarish, oqar suvlarni bog'lab olib, sun'iy sug'orish tizimlari, suv omborlarini bunyod qilish ishlari amalga oshirilgan... Qashqadaryo vohasida o'rta asrlarda suvni bog'lab oluvchi oddiy texnik inshootlardan X–XII asrlardan to XX asrning oxirlarigacha juda keng foydalanilgan" (55-bet). Shu sababli, II bobning navbatdagi 4-bo'limida "Chimqo'rg'on, Hisorak, Pachkamar, Qamashi suv omborlari, Qorabog' va Langar sel suv omborlari tahliliga muallif tomonidan jiddiy e'tibor berilgan. Unda har bir suv yig'uvchi inshootning qurilish tarixi, yig'iladigan suvning hajmi (kub metr hisobida) foydali ish hajmi, chuqurligi, loyqa bosish hajmi, sug'oriladigan yerlarning umumiy maydoni kabi statistik ma'lumotlariga alohida e'tibor berilgan. Muallifning xulosasiga ko'ra, "Qashqadaryo vohasida amalga oshirilgan irrigatsiya sohasidagi qurilish ishlari tufayli bunyod etilgan suv inshootlari va sun'iy sug'orish inshootlari orqali taxminan 200 ming gektarga yaqin yer maydonlari (lalmikor yer maydonlari ham qo'shilgan) o'zlashtirilgan, dekan fikrga keldik" (68-bet). Ushbu xulosani tajjublanarli tomoni shundaki, suv omborlari zahirasi hamda tabiiy oqar suv manbalari asosida sug'oriladigan yerlarga nima uchundir lalmikor yer maydonlari ham qo'shib yuborilgan va yagona gektar hajmi chiqarilgan... Bunga aniqlik kirituvchi izoh esa mavjud emas. Tadqiqot mavzusi vohaning sun'iy sug'orish tarixiga bag'ishlanganini e'tiborga oladigan bo'lsak, bunga umuman ehtiyoj yo'qdir.

Mazkur bobning navbatdagi 5-bo'limi Qashqa vohasining Sardobalar tarixiga, 6-bo'limi Koriz nomli yer osti suv chiqarish tizimlari o'rganilishiga bag'shlangan bo'lib, ushbu masalalar tahlili va talqini yuqori darajada bayon qilingan. Bu borada muallifning Jizzax dashti va Mirzacho'l sardobalari, Nurota, Baxmal korizlari bo'yicha olib borgan izlanishlari natijasida erishgan malaka va tajribalari qo'l kelgan. Mirzacho'ldagi Og'ochti, Malik cho'lidagi Raboti Malik sardobalari bilan Qashqadaryo vohasidagi sardobalarni solishtirib qiyosiy o'rgangan, muqoyasaviy xususiyatlariga e'tibor qaratgan va ushbu izlanishlar yaxshi samara bergan (75–78 betlar).

Markaziy Osiyo, xususan bugungi O'zbekistonning qadimgi madaniy vohalari, sug'orma dehqonchilik bilan shug'ullangan shaharlar, qishloq makonlari aholisini umumiy tarixini o'rganishda, ularning sarhadlarini aniqlashda irrigatsiya tarmoqlariga arxeologiya merosi ob'yektlari joylashuvini mutanosibligini aniqlash va xaritaga tushirish usuli muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday tadqiqotlar natijasida o'tmishda muayyan mamlakat, davlatning ma'muriy tarkibiy qismi bo'lgan viloyat, rustoq, beklilik va hokimlikga qarashli markaziy shahar, shaharcha, agrar xo'jaliklar hududidagi qishloq, kentlarning aniq soni, o'zlashtirilgan yerlarning sarhisobini chiqarish mumkin bo'ladi. Shu nuqtai nazardan, S. Suyunov monografiyasining III bobi "Qashqadaryo vohasidagi arxeologiya yodgorliklarini irrigatsiya rayonlariga bo'lib o'rganish", deb nomlanib ushbu bob 6 ta bo'limdan iborat (87–125 bet). Bo'limlar o'z navbatida an'anaviy tarzda nisbatan yirik oqar-suv manbalari nomi bilan atalib, irrigatsiya rayonlari "hosil qilingan". Masalan, "Oqsuvdaryo irrigatsiya rayoni Tanxozdaryo irrigatsiya rayoni" va h.k.

Ushbu bo'limlarda har bir irrigatsiya rayonidagi mavjud arxeologiya yodgorliklarining o'rganilish tarixi, Turkiston general-gubernatorligi davridan shu kunga qadar o'tkazilgan izlanishlarning qisqacha tahlili turli yillardagi mualliflar ro'yxati, so'nggi (XXI asrning ikkinchi o'n yilligi – P. M.) ma'lumotlar asosida tarixiy davrlar kesimi bo'yicha ularning soni, joylashuv kordinatalari va albatta irrigatsiya tarmoqlariga oid ma'lumotlar berilgan. Ushbu bobning har bir bo'limida, ya'ni irrigatsiya rayonlari bo'yicha ma'lumotlarning so'nggida muallif xulosa sifatida antik, ilk o'rta asrlar, rivojlangan o'rta asrlar, so'nggi o'rta asrlarda faoliyat ko'rsatgan va bizning davrimizgacha yetib kelgan arxeologiya merosi ob'yektlari umumiy soni statistik ma'lumotlar asosida bergan. Bu juda ham muhim ma'lumotlardir. Demak, S. Suyunov hisob-kitoblariga qaraganda bugungi kunda Qashqadaryo vohasida umumiy sun'iy sug'orish inshootlari faoliyati bilan bog'liq 925 ta arxeologiya yodgorliklari mavjud bo'lib ulardan 200 tasi antik davrga, 419 tasi ilk o'rta asrlarga 68 tasi rivojlangan o'rta asrlarga tegishlidir.

Lekin meni nazarimda ushbu ma'lumotlarda ba'zi bir nomuvofiqliklar mavjud. Xususan, birinchidan, har bir irrigatsiya rayonlari bo'yicha bir davrga oid ro'yxatda qayd etilgan, ya'ni masalan, ilk o'rta asr ro'yxatidagi yodgorliklar antik davrga oid ro'yxatda qayd etilmagan, zero, ularning ko'pchiligida hech bo'lmaganda so'nggi antik davr madaniy qatlamlari mavjuddir. Ikkinchidan, bunday statistik ma'lumot o'quvchida o'rganilayotgan vohada 419 ta yagona ijtimoiy, iqtisodiy davr V-VIII asrlarga oid toza "stirilnyy" yodgorliklar borligini anglatadi. Bu esa katta, jiddiy munozarali masaladir. Uchinchidan, muallif to'g'ri ta'kidlaganidek, so'nggi o'rta asrlarda, xonliklar davrida nafaqat Qashqadaryo vohasida, balki qo'shni mintaqalarda ham qishloq manzillari soni keskin kamayib ketgan. Bunga sabab, Shayboniyxon yurishlari davrida Dashti Qipchoqdan kelgan chorvador o'zbek urug'larining aksariyati yaylov chorvachiligi bilan shug'ullanishni davom ettirib, o'nlab o'tovlardan tashkil topgan ovullarda yashashni davom ettirgani, qolaversa, bu davrda Toshkent, Jizzax, Samarqandda bo'lgani kabi Qashqadaryoning Kesh, Naxshabida ham qishloq aholisining asosini tashkil qiluvchi dehqonlarni – qo'rg'on hovli – dala hovlida yashash tarziga o'tganligidir, Ya'ni, kech kuz, qish, erta bahor payti – Kitob, Shahrisabz, Qarshi va boshqa shahar qo'rg'onlaridagi o'z mahallalarida turg'un yashagani, ekin-tekin mavsumi, hosilni yig'ib olishgacha bo'lgan davrda butun oilasi bilan o'zining qishloq xo'jaligi paykallari qoshidagi kapa va chordevorlarda yashagani sababdir. 1501 yilda Samarqandda to'rt oylik qamalda qolgan Mirzo Boburni yozishicha, shahar aholisi qo'shin va a'yonlari nihoyatda nochor ahvolda qolgan. Yoz oylari pishiqchilik bo'lgani sababli, bir qator chapani, dovyurak yigitlar Cho'ponota, Konigil taraflardagi o'z bog'-rog'lari, ekinzorlaridan meva-cheva, poliz ekinlari olib kelish uchun yarim tunda shahardan chiqib manzil sari yo'lga chiqishgan. Buni oldindan bilgan g'anim u yerlarga qo'riqchilar qo'yib, shaharliklarni qo'lga olishadi va ularni quloq, burunlarini kesib orqaga qaytarib yuborishadi. Ushbu voqealar qo'rg'on hovli, dala hovli tarzida yashagan, so'nggi o'rta asr dehqonlari, bog'dorchilik vakillari hayotiga dahldor muhim ma'lumotlardir.

Qashqadaryo vohasi (irrigatsiya rayonlari kesimida) sug'orish inshootlari va o'zlashtirilgan yer maydonlari", deb nomlangan IV bob muvaffaqiyatli tarzda yozilgan III bobning uzviy davomi bo'lib, 5 ta bo'limdan tashkil topgan. Mazkur bo'limlarning 4 tasi oldingi bobda talqin qilingan irrigatsiya rayonlaridagi mavjud sug'orish inshootlari va o'zlashtirilgan yer maydonlarining xususiyatlari, umumiy hajmi masalalari yechimiga bag'ishlangan. IV bobning so'nggi 5-bo'limida esa voha irrigatsiya texnikasi va suvdan foydalanish tartibi xonliklar zamoni tarixiga oid yozma manbalar, saqlanib qolgan mavjud inshootlar asosida ko'rib chiqilgan.

Muallif S. Suyunovning hisob-kitoblariga qaraganda, 6 ta irrigatsiya rayonida sun'iy sug'orish tarmoqlari asosida o'zlashtirilgan ekin paykallarining umumiy maydoni qariyb 100 ming gektar yerni tashkil qilgan. Qayd etilishicha, Qarshi-Nasaf vohasi eng ko'p yer maydoni o'zlashtirilgan bo'lib, u 35–40 ming gektarni tashkil qilgan. Oqsuvdaryo havzasidagi Shahrisabz-Kitob-Kesh vohasida esa 15–18 ming gektar yerda qishloq xo'jalik ekinlari yetishtirilgan.

Ushbu bobning 5-bo'limi o'rganilayotgan Qashqadaryo vohasining irrigatsiya texnikasi va suvdan foydalanish tartiblari to'g'risida ma'lumotlar berilgan (164–176 bet). Muallifni qayd etishicha, qadimgi davrlardan buyon faolyatida bo'lgan shohariq va kanallar (Eski Anhor), Shayboniy davrida bunyod etilgan G'ishtband, Qashqadaryo ustiga qurilgan tosh arkalardan iborat suv ayirg'ichli ko'prik, band, xonband, taxtaband, darxat, sepoya, chorpoya kabi suv yo'lini to'sishda foydalanilgan oddiy va murakkab qurilma, inshootlar tarixi arxeologik, etnografik va yozma manbalar asosida muvaffaqiyatli tarzda ochib berilgan. Muallifning xulosalariga qaraganda Qashqadaryo va uning yirik irmoqlari antik davrda taxminan 20–25 ming gektar, ilk o'rta asrlarda 70–80 ming gektar, rivojlangan o'rta asrlarda 50–55 ming gektar Amir Temur va temuriylar davrida 30–35 ming gektarga yaqin yer maydonlari o'zlashtirilgan (175-bet). Bunday hisob-kitoblar negizida esa qayd etilgan, bizning davrimizgacha yetib kelgan arxeologiya yodgorliklarining bugungi soni yotadi. Muallifning fikricha, "Bu albatta, Qashqadaryo vohasi sug'orilishining (davriy o'zlashtirilishining) tarixiy dinamikasini ko'rsatadi" (176-bet). Aslida ham shundaymikin, arxeologiya yodgorliklarining soni sug'oriladigan yer maydonlarining ko'lamini o'lchashda qanchalik ahamiyatga ega? Nahotki, sug'oriladigan yer maydonlari Renessans davri hisoblanayotgan IX–XII asrlarda ilk o'rta asrlar davridan 1,5 baravar, Amir Temur va temuriylar

davrida 2 baravar kamayib ketgan bo'lsa? Bu degani nafaqat Qashqadaryo vohasi, balki butun Movarounnahrda aholi soni, demografik ahvol orqaga ketdi, degan ma'noni bermaydimi? Chunki yetishtiriladigan qishloq xo'jaligi mahsulotlari aholining talab va ehtiyojlaridan kelib chiqib, ichki bozor orqali sarflangani, ortiqchasi qo'shni va boshqa viloyatlarga chiqarilgani haqida O'rta Osiyo mualliflarida ma'lumotlar borku.

Aslida, bu boradagi masalalarda muallifning o'zi ham bir qator chalkashliklarga qo'l qo'ygan. Bunga monografiyaning "Qashqadaryo vohasi aholisining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotida sug'orma dehqonchilikning ahamiyati" nomi bilan atalgan V bobdagi xulosalar misol bo'lishi mumkin. Unda yozilishicha, "arablar istilosi davrida ilk o'rta asrlar davri qishloq makonlarining keskin kamayish holati kuzatiladi va bu holat vohadagi sug'oriladigan yer maydonlarining keskin qisqarishiga sabab bo'ladi" (195-bet). Muallif aslida arablar istilosi munosabati bilan qishloq makonlarining aksariyatida hayotiy faoliyat izdan chiqqani, to'xtaganini nazarda tutmoqda. Vaholanki, arablar istilosi davri butun boshli ilk o'rta asrlar (V–VIII asr)ni anglatmaydi.

S. Suyunov keyingi davr IX–XII asrlar bo'yicha quyidagi xulosalarga keladi: "Rivojlangan o'rta asrlar davriga kelib, Qashqadaryo vohasida urbanizatsiya jarayonlari, o'zining eng yuqori rivojlanish pallasiga o'tdi, shunda vohada 30 dan ortiq shaharlar faoliyat ko'rsatdi, shaharlar atrofida, ularning ta'sir doirasida bo'lgan dehqonchilik vohalari shakllanadi va sug'orish tarmoqlari (maydonlari M.P.) butunlay kengayadi (196–197-bet). Bu mutlaqo to'g'ri fikr, qoyil demaslikni hech bir iloji yo'q. – Hamma gap ushbu fikrlardan yuzaga kelgan qaltis savolda... Nega unda sug'oriladigan yerlar hajmi ilk o'rta asrlarda taxminan 70–80 ming gektar bo'lgan holda rivojlangan o'rta asrlarda 50–55 ming gektarni tashkil qilgan? Nazarimda tadqiqotchi S.Suyunovni chalg'itgan holat ilk o'rta asrlar davrida qishloq makonlarini son jihatdan keyingi IX–XII asrlarga nisbatan ancha ko'pligidadir.

Tajribali arxeolog, sug'dshunos A.Raimqulovning yozishicha, "Ilk o'rta asrlarda butun Qashqadaryo vohasida Kesh va Naxshabdan tashqari yirik shahar markazlari mavjud bo'lmaganligi aytilsada, lekin IX–X asrlarga kelib maydoni 10 gektardan toki 200–250 gektargacha bo'lgan shaharlar soni 30 dan ortiq bo'lgan (A. Raimqulov. Janubiy Sug'dning VIII–XIV asrlar davri tarixiy topografiyasi. Tarix fanlari dissertatsiyasi avtoreferati. Samarqand, 2018, 32-b). Masalaning mohiyati mana qayerda. Demak, 1 dona 200 yoki 250 gektarlik shahar maydoni 1 gektarlik 200–250 ta yoki 0,5 gektarli 400–500 ta qishloq makoni maydoni hajmiga tengdir. O'rganilayotgan vohadagi 300 dan ortiq shahar, unga qo'shimcha ravishda mavjud qishloq makonlari hisobga olingandek bo'lsa, aholining real soni, shunga muvofiq, sug'orma qishloq xo'jaligi yerlari hajmini taxminan bo'lsada tasavvur qilish mumkin. Va albatta, bu raqamlar ilk o'rta asrlarga oid bu boradagi raqamlardan anchagina yirikdir.

Yuqorida qayd etilgan V bobda o'z nomlanishiga muvofiq, Qashqadaryo vohasining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotida sug'orma dehqonchilikning ahamiyati masalalari ko'rib chiqilishi nazarda tutilgan. Ammo ushbu bobni bir necha bor tahlil qilsamda unda madaniy hayot masalalariga oid fikrlarni ko'rmadim, madaniy hayot atamasi orqali muallif aynan nimani nazarda tutganini tushunmadim. Mazkur bobda irrigatsiya tarmoqlariga asoslangan sug'orma dehqonchilik vohalarini arablar istilosi va ayniqsa mo'g'ullar bosqini davrida tanazzulga yuz tutgani yozma va arxeologik manbalar asosida tasdiqlashga harakat qilingan.

Monografik tadqiqotning yakuniy hulosasida voha sug'orilish tarixi bilan bog'liq irrigatsiya xaritasi, arxeologik materiallar asosida voha davriy o'zlashtirilishining tarixiy dinamikasi, agrar yer maydonlari hajmining xronologik tahlili, Buyuk Ipak yo'li tarmoqlari bo'ylab joylashgan, sardoba va karvonsaroylarning me'moriy qurilish usullari va funksiyalari haqida yaxshi, mazmunli fikrlar berilgan.

Yuqorida bildirilgan ayrim munozarali mulohazalar, bahstlab fikrlarga qaramasdan irrigatsiya tarixi bo'yicha tajribali mutaxassis, tadqiqotchi Samaritdin Suyunovning ushbu monografiyasini so'nggi yillarda Qashqadaryo vohasi sug'orma dehqonchilik muammolari masalalari yechimiga bag'ishlangan, ijobiy tarzda muvaffaqiyatli yakunlangan ilmiy izlanishlar sirasiga bema'lol kiritish mumkin.

Pardayev Muxtorqul



АБДУЛГАЗИЕВА БАХТУЛ

Абдулгазиева Бахтул родилась в 1936 году на Украине, в Крыму, в селе Мамчук Красноперкопского района в крестьянской семье; крымская по национальности татарка.

Семья Бахтул попала под тотальную депортацию крымских татар и других народов из Крыма в мае 1944 года, проводившуюся по незаконным обвинениям органов власти СССР в «массовом дезертирстве» из Красной Армии, а также в сотрудничестве с немецкими оккупационными войсками.

Бахтул жила с мамой, отцом и двумя братьями в городе Джанкой. Отец погиб на войне, похоронка пришла в 1942 г. Она даже имени его не помнила, и спросить у кого-либо не было возможности в силу её малого возраста. После депортации мама с двумя сыновьями и дочерью оказались в Фергане. Там же,

в Фергане, маму и старшего брата, когда они возвращались с продуктами с базара, в 1947 году убили бандиты. Сестра и брат оказались в разных детских домах, Бахтул тогда было 11 лет. Жизнь в детском доме, по её воспоминаниям, была очень нелёгкой. Там же, в Фергане, она окончила школу.

С 1952 по 1956 гг. Бахтул училась в Каршинском педагогическом институте, получила диплом учителя начальных классов. Короткое время преподавала русский язык и литературу в кишлаке Нариманово в школе № 7 Кашкадарьинской области.

В 1959 г. поступила, а в 1964 г. с отличием окончила исторический факультет Ташкентского государственного университета. Получила диплом по специальности «Историк археолог». По окончании университета была направлена на работу в Андижанский областной краеведческий музей. Бахтул-апа проработала там 17 лет. Будучи заведующей отделом, она инициировала научное описание коллекций и каталогизацию объектов. Бахтул Абдулгазиева свободно владела узбекским и русским языками, и это ей очень помогло в работе и жизни.

Трудясь в музее, проявила себя как настоящий профессионал, ученый и историк и в 1974 году была награждена почетной грамотой Министерства культуры УзССР и знаком «Отличник музейной работы». Проводила полевые археологические исследования на памятниках андижанской области: Сартепа, Кургантепа, Шор-тепа, Заурак и многих других, результаты которых нашли отражение в печати.

С 1981 и по 2012 гг. работала в Институте археологии – сначала в должности младшего научного сотрудника, а с 1990 года – старшим научным сотрудником. Работая в институте, Б. Абдулгазиева принимала участие в археологических раскопках в различных районах страны. Однако главными объектами ее исследований оставались памятники Восточной Ферганы, особенно окрестностей Андижана.



В 1988 г. Б. Абдулгазиева защитила кандидатскую диссертацию по теме «Восточная Фергана в древности и раннем средневековье», далее принимала участие в качестве начальника отряда Андижанской, Султанабадской, Лямбитепинской и других археологических экспедиций. Основная научная деятельность связана с изучением сельских поселений Восточной Ферганы эпохи античности и раннего средневековья. Бахтул Абдулгазиева участвовала в разработке коллективных тем: «Изучение крупнейших городов Узбекистана по разделу

«Историческая топография города Андижана», «Составление свода памятников археологии Узбекистана», «Проблемы возникновения и этапов развития городской культуры Ферганской долины». Участвовала в разработке темы «Средневековая государственность и цивилизация в Узбекистане на основе археологических источников».

При раскопках на могильнике Чордона конца XIII – начала XIV вв. ею было вскрыто более 30 погребений, среди которых 5 захоронений проветенных по языческому обряду с сопроводительным инвентарем, конским снаряжением и стрелами, что позволило установить связь со средой кочевников Евро-Азиатских степей в эпоху развитого средневековья, а также говорить об идеологических представлениях населения Ферганы.

Б. Абдулгазиева вышла на пенсию с должности старшего научного сотрудника отдела археологии Мавераннахра Института археологии АН Узбекистана в 2012 году.

Она была активным участником ряда научных, в том числе международных конференций, на которых выступала по проблемам идеологии государственности на территории Ферганы эпохи античности и средневековья. Бахтул Абдулгазиева – автор более 60 научных статей, и до последних дней трудилась по подготовке важных научных публикаций. Постоянно выступала по андижанскому телевидению, рассказывала о результатах раскопок, проходила в научную командировку в Германии.

Брат Абдурахман переехал в Россию, завел семью и уговаривал Бахтул жить с ними, но она не согласилась и посвятила свою жизнь археологии Узбекистана.

По воспоминаниям коллег, являлась очень ответственным и профессиональным археологом, истиной ученицей М. Е. Массона и кафедры археологии ТашГУ. Несмотря на тяжелое детство, Бахтул-опа не замкнулась в себе и не затаила злобу на людей. Стала настоящим ученым, посвятившим свою жизнь исторической науке, была отзывчивым, добрым, замечательным человеком.

Скончалась Абдулгазиева Бахтул 25 декабря 2024 года.

Выражаем искренние соболезнования членам семьи и близким людям нашей коллеги.

Сотрудники Самаркандского института археологии

- АО – Археологические открытия
 АКД – Автореферат кандидатской диссертации.
 АП – Археология Приаралья.
 АРТ – Археологические работы в Таджикистане
 АСГЭ – Археологический сборник Государственного Эрмитажа.
 БКИЧП – Бюллетень Комиссии по изучению четвертичного периода
 ВДИ – Вестник древней истории.
 ВККО АН РУз – Вестник Каракалпакского отделения Академии наук Республики Узбекистан.
 ВККФ АН – Вестник Каракалпакского филиала АН УзССР
 ГАИМК – Государственная Академия истории материальной культуры
 ГМВ – Государственный музей Востока
 ЗВОРАО – Записки Восточного отдела Русского археологического общества.
 ЗКВ – Записки коллегии востоковедов.
 ИИАЭ – Институт истории, археологии и этнографии
 ИМКУ – История материальной культуры Узбекистана.
 ИНКВА – Международный союз по изучению четвертичного периода
 ККО АН РУз – Каракалпакское отделение Академии Наук Республики Узбекистан
 КСИА – Краткие сообщения Института археологии АН СССР.
 КСИИМК – Краткие сообщения о докладах и полевых исследованиях Института истории материальной культуры АН СССР .
 МАИКЦА – Информационный бюллетень Международной ассоциации по изучению культур Центральной Азии
 МБАЭ – Материалы Бухарской археологической экспедиции
 МИА – Материалы и исследования по археологии СССР
 МИТТ – Материалы по истории туркмен и Туркмении
 МОН РК – Министерство образования и науки Республики Казахстан
 МПАЭ – Материалы Пенджикенской археологической экспедиции
 НАВ – Нижневолжский археологический вестник
 МХЭ – Материалы Хорезмской экспедиции.
 НАН РК – Национальная Академия наук Республики Казахстан
 НГПИ – Нукусский государственный педагогический институт им. Ажинияза.
 НЭ – Нумизматика и эпиграфика.
 ОНУ – Общественные науки Узбекистана.
 РА – Российская археология
 СА – Советская археология.
 САГУ – Среднеазиатский государственный университет.
 САИ – Свод археологических источников
 СМИЗО – Сборник материалов, относящихся к истории Золотой Орды.
 СЭ – Советская этнография.
 ТД – Тезисы докладов.
 ТИИАЭ АН КазССР – Труды Института истории, археологии и этнографии АН КазССР
 ТКАЭЭ – Труды Киргизской археолого-этнографической экспедиции.
 ТОВЭ – Труды Отдела Востока Государственного Эрмитажа.
 ТХАЭЭ – Труды Хорезмской археолого-этнографической экспедиции.
 ЭВ – Эпиграфика Востока
 ЮТАКЭ – Труды Южно-Туркменистанской археологической комплексной экспедиции